

RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI INNOVATSION KLASTERINING AHAMIYATI

Odilov Dilshodjon Tulqinovich

Turizmni rivojlantirish assotsiatsiyasi raisi
dilshododilov@gmail.com

Odilova Dilnoza Barnayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Fundamental iqtisodiyot" kafedrası PhD
dilnozaodilova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10066205>

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari sohasining jadallik bilan rivojlanib borishi natijasida yangi tuzilma va hamkorlikka ehtiyoj sezilmoqda va bu jarayonga innovatsion klaster juda mos keladi. Innovatsion klasterda sanoat klasteridan farqli o'laroq, nou-xauni yaratish va texnologik qo'llashga, klaster kompaniyalari doirasida to'plangan bilim va ko'nikmalardan keng foydalanishga e'tibor qaratilgan. Innovatsion klasterning xo'jalik birlashmalarining boshqa shakllaridan farqi shundaki, klaster kompaniyalari to'liq qo'shilishga bormaydi, balki ularga yuridik shaxs maqomini saqlab qolish va shu bilan birga boshqa korxonalar bilan hamkorlik qilish imkonini beruvchi klasterni tashkil etuvchi va undan tashqari o'zaro hamkorlik mexanizmini yaratadi. "Bugungi kunda Yevropa ittifoqi tomonidan ilgari surilgan samarali me'yorda ixtisoslashtirish borasidagi konsepsiyalar ustida alohida to'xtalib o'tish talab etiladi"¹.

Klasterlarni yaratish nafaqat unda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlovchi tizim bo'lganligi uchun "klaster tashabbuskorlari" yildan yilga ko'payib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida 2021-yil yakuni holatida turli sohalardagi klasterlar soni jami 454 tani tashkil etadi². Klaster bu yagona texnologik bo'g'inga ulangan korxonalar majmuasi bo'lib, u fan yutuqlari va eng yangi texnologiyalarni amaliy faoliyatga joriy etish hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni o'z ichiga oladi³. Klaster – manfaatdor subyektlarning sa'y-harakatlarini (ta'lim, resurs, ishlab chiqarish) birlashtirishning tashkiliy shaklidir⁴.

Xizmat ko'rsatish sohasini axborotlashtirish sharoitida virtual klasterni shakllantirishda konseptual yondashuv taklif etilmoqda, bu xizmat ko'rsatish sohasi subyektlarining jismoniy joylashuvidan qat'iy nazar AKT va tarmoqli tuzilma mexanizmlaridan foydalangan holda axborot almashinuvining virtual makonini tashkil etadi. Klasterlar sanoat rayonlari, ilmiy markazlar, texnoparklar va ta'lim muassasalari, sanoat zonalarini kabi ko'plab infratuzilmaga ega bo'lgan va milliy innovatsion tizimni o'zida birlashtiruvchi yirik birlashmalar sifatida qaraladi⁵.

¹ Маматов А.А., Жўраев Т.Т. Кластерларни ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини йўлга қўйишнинг хориж тажрибаси. "XXI аср: фан ва таълим масалалари" илмий электрон журнали. №1, 2020 йил

² <http://www.ima.uz/uz>.

³ Раҳматов М.А., Зарипов Б.З. Кластер интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш. Рисола Т. "Замин Нашр" нашриёти 2018 й. -Б.38.

⁴ Базарова Г.Г. Худудий меҳнат бозорини ривожлантиришнинг кластер шаклини яратиш. "Иқтисод ва таълим" журнали. 2021. - Б.202.


⁵ Ҳакимов З.А. Кластерларнинг "саноат 4.0"га трансформацияси. Журнал. Иқтисодиёт ва таълим. 2022 йил № 2. -245 бет.

Innovatsion klasterlarni shakllantirishda ikkita yondashuv mavjud: ochiq va yopiq klasterlar. Rus olimi T.S.Popov va boshqa olimlar tomonidan o'tkazilgan klasterli loyihalash masalalarini tahlil qilish asosida, ochiq klaster modeli postindustrial jamiyatning xizmat ko'rsatish sohasiga to'la mos keladi⁶, deb ta'kidlab o'tadi. Bu turli manbalardan g'oyalar va moliyaviy mablag'larni olish, universitetlar va ilmiy tashkilotlardan xodimlarni jalb qilish va g'oyalarni jamlash, ish natijalariga ko'ra yuqori mehnat motivatsiyasi va qiziqishi bo'lgan mutaxassislar bilan ishlash imkonini beradi.

Virtual klasterning tuzilishi uchta tarkibiy qismdan iborat: infratuzilma, ultratuzilma va intratuzilma. Infratuzilma axborot almashinuvini tashkil etish obyektlaridan iborat bo'lib, ularning asosiysi axborotlashtirish integratori hisoblanadi, ya'ni axborot jamiyatining sohalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jarayonlarini amalga oshiruvchi ma'lumotlar markazi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, infratuzilma tomonidan virtualizatsiya foydasiga argument sifatida ma'lumotlar almashinuvining fizik usulini yuqori xarajatli ekanligidir. Bu jarayon juda ko'p mehnat sarflarini, axborotlarni tashuvchi instrumentlarni sotib olish, ma'lumotlarni tashish uchun muhim resurslarni ajratishni talab qiladi. Axborot almashinuvini virtualizatsiya qilish ushbu klasterning ichki funksiyalarini amalga oshirishni avtomatlashtirish orqali tranzaksion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Ko'p jihatdan, hududiy lokalizatsiyani yengib o'tish maqsadida ultratuzilmaning mavjudligi klaster virtualizatsiyasiga ehtiyoj tug'diradi. Bilim va fan zamonaviy iqtisodiyotda yuqori qiymat manbai hisoblanadi. Bilimlarni tarqatish tezligi va kengligi tizim samaradorligini belgilovchi omilga aylanadi. Ilmiy maktablarda ishtirok etish uchun virtual klaster maydoniga butun dunyo subyektlarini jalb etish imkoniyati va shu bilan birga ularni jismoniy ko'chirish xarajatlarini o'z zimmasiga olmaslik, bilimlarni almashuvi imkoniyatlarini va uning shart-sharoitlarini kengaytiradi hamda o'z navbatida klasterning innovatsion salohiyatini oshiradi va yangi bilimlarni paydo bo'lishi ehtimolini oshiradi.



3.

1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotlari va axborotlashtirish virtual klasterining o'zaro hamkorligi sxemasi⁷

⁶ Попова Т.С. Социально-экономический механизм государственного управления национальной конкурентоспособностью: Монография/ Т.С. Попова. - Воронеж: издательств «ИСТОКИ», 2012. - 107с.

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Virtual klasterlarni yaratilishi tufayli yagona axborot va texnologik makon shakllanadi – axborotli o‘zaro hamkorlikning korporativ muhiti shakllanadi. 2-rasmda keltirilgan sxemaga muvofiq xizmat ko‘rsatish sohasi tashkilotlari va ijtimoiy sohani axborotlashtirishning virtual klasteri o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalarini shakllanishi AKTdan keng foydalanishga turtki berib raqobatbardosh-kooperativ strategiya tamoyillariga muvofiq va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu tizim xizmat ko‘rsatish sohasining boshqa boshqarish tizimlarining funksiyalarini takrorlash uchun mo‘ljallanmagan. Bu xizmat ko‘rsatish sohasida axborotlashtirish jarayonlarining borishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning o‘ziga xos filtri, qayta tashkil etuvchisi va axborotlarni jamg‘aruvchi, uning tashqi va ichki muhit elementlari o‘rtasidagi vositachi bo‘ladi, bu AKTning o‘ziga xos xususiyatlari, uning xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatidagi rolining oshishi bilan bog‘liq. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi sheriklikning taklif etilayotgan sxemasi ijtimoiy sadoqatni yaratish mexanizmi hisoblanadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. 2023 y.
3. Маматов А.А., Жўраев Т.Т. Кластерларни ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини йўлга қўйишнинг хориж тажрибаси. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №1, 2020 йил
4. Раҳматов М.А., Зарипов Б.З. Кластер интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш. Рисола Т. “Замин Нашр” нашриёти 2018 й. -Б.38.
5. Базарова Г.Г. Худудий меҳнат бозорини ривожлантиришнинг кластер шаклини яратиш. “Иқтисод ва таълим” журнали. 2021. - Б.202.